



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 22-may

VII-10-65-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi O'RQ-937-sonli Qonunining ijrosi bo'yicha tumanda amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi Davlat kadastrlar palatasi Samarqand viloyati boshqarmasining Kattaqo'rg'on tumani filiali boshlig'i F.Ibragimovning hisoboti haqida

O'zbekiston Respublikasi 2024-yil 5-avgustdagi "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi Qonuni hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, o'ninchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Davlat kadastrlar palatasi Samarqand viloyati boshqarmasining Kattaqo'rg'on tumani filiali boshlig'i F.Ibragimovning tomonidan O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi O'RQ-937-sonli Qonunining ijrosi bo'yicha tumanda amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti shartli ravishda qabul qilinsin.

2. Tuman adliya bo'limi (B.Boymurodov), Davlat kadastrlar palatasi Samarqand viloyati boshqarmasining Kattaqo'rg'on tumani filiali (F.Ibragimov) va tegishli mutasaddi tashkilotlarga:

-qonun ijrosini ta'minlash bo'yicha 2025 yil uchun belgilangan reja-grafik (<https://etirof.kadastr.uz/plan-grafic>) asosida tumandagi 9 ta mahallalardagi yakka tartibdagi uy-joylarni texnik inventarizatsiya ishlarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish;

- egallagan yer uchastkasiga 99 yil va boshqa yer uchastkalariga 49 yil muddatga ijara huquqi, shuningdek, ularda qurilgan bino va inshootlarga mulk huquqi e'tirof etilishini aholi o'rtasida targ'ib qilish

- e'tirof axborot tizimlari (etirof.kadastr.uz) orqali ma'lumotlarni tizimga kiritish va muhokama jarayonlarini jadallashtirish;

- Qonunning mazmun mohiyatini aholi o'rtasida targ'ib qilishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda telegram guruhi tashkil qilib, mazkur telegram guruhi orqali murojaatlar yuzasidan bajariladigan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etib borish;

- Qonunning mazmun-mohiyati bilan 9 ta (Qoqsoy, Qoradaryo, Jizmonsoy, Valijon, Kumushkent, Kattaming, Kumushqirg'oq, Qorako'lcha, Qushquton) mahallalarning har bir aholi xonadonlari o'rtasida targ'ibot va tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish;

- Qonunning ijrosi yuzasidan bajarilgan ishlar natijalari bo'yicha tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan kelishgan holda har chorak yakuni bilan Xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasiga axborot berish vazifasi yuklatilsin.

3. Kattaqo'rg'on tumani hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (J.Safarov), "Kattaqo'rg'on kecha va bugun" gazetasi bosh muharriri (O'.Usmonov)larga o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish bilan bog'liq ishlarni muntazam ravishda ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda tizimli yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (R.Djurayev), Agrar, suv xo'jaligi va ekologiya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Xolova) hamda tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari (M.Rasulov) zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH